

## **Hashorotlarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabalari*

*Toxirova Farida Oybek qizi*

*G'ofurova Muqaddasxon SHavkatjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hashorotlarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati hamda ulardan olinadigan mahsulotlar, tuproq hosil bo'lishidagi ro'li haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`z:** Qo'ng'izlar, kapalaklar, termittar, asalarichilik, pillachilik.

### **Значение насекомых в природе и жизни человека**

**Аннотация:** В статье представлена информация о значении насекомых в природе и жизни человека, а также о роли продуктов, полученных от них, в почвообразовании.

**Ключевые слова:** жуки, бабочки, термиты, пчеловодство, коконирование.

### **The importance of insects in nature and human life**

**Abstract:** This article provides information on the importance of insects in nature and human life, as well as the role of products obtained from them in soil formation.

**Key words:** beetles, butterflies, termites, beekeeping, cocooning.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini kamaytiradigan omillardan biri zararli hashorotlar hisoblanadi. Shuning uchun o'simliklarning ulardan himoya qilish qishloq xo'jaligida asosiy masalalardan biridir. Bu masalaning muhimligini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 31-avgustdagি II chaqiriq III

sessiyasida “Qishloq xo’jalik ekinlarini zararkunanda, kasallik va begona o’tlardan himoya qilish” to’g’risida qabul qilingan qonun ham tasdiqlaydi. Dunyodagi barcha tirik mavjudod ichida hashorotlar turi va soni jihatidan eng ko’p tarqalgan.Ularni tuproqda, o’simliklarda va hatto, hashorotlarning o’zida ham rivojlanadi va hayot faoliyatini davom ettiradi. Hashorotlar juda kichik (mayda) organizm bo’lishi bilan bir qatorda, juda tez ko’payish xususiyatiga ega. Ular odam va hayvonlar iste’mol qiladigan mahsulotlar bilan oziqlanib, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga zarar keltiradi. Qishloq xo’jalik ekinlarini hashorotlardan to’g’ri himoya qilish bilan bir qatorda yetishtirilgan mahsulotlarni saqlab qolish, hashorotning tarqalishi, zarar keltirish darajasi, bioekologiyasini umumiy va qishloq xo’jalik entomotologiyasi o’rganadi.

Entomotologiya bu hashorotlarni o’rganishga bag’ishlangan (yunoncha - entonom – hashorot, logos – fan, ta’limot ) nazariy fan bo’lib u hashorotlarni tana tuzilishi, ichki organlari va ularda kechadigan fiziologik jarayonlar, hayot kechirishi, tashqi muhit bilan bog’liqligi hamd hashorotlar olamining tasnifini yoritib beradi. Qishloq xo’jalik entomologiyasi fanining asosiy vazifasi hosilni zararli hashorotlar ta’siridan saqlab qolish, u o’simliklarning zararkunandalarga chidamliligi, navning xossalari, agrotexnika darajasi, almashlab ekishdag'i o’rni, agrobiologik omillarni va kurashish chora tadbirlarini o’rganishdan iborat. Shuning uchun qishloq xo’jalik entomologiyasi umumiy biologiya, fiziologiya, mikrobiologiya, zoologiya, tuproqshunoslik, o’simlikshunoslik, urug’chilik va seleksiya, umumiy dehqonchilik, agrokimyo, paxtachilik, o’simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish fanlari bilan o’zaro uzviy bog’liqdir.Shuni ham aytish joizki, qishloq xo’jalik entomologiyasining nazariy asosi umumiy entomologiya hisoblanadi.

Professor Ross ma’lumotiga ko’ra, AQSHda hashorotlarning qishloq xo’jalik mahsulotlariga va o’rmonlarga yetkazgan zarari va boshqa zararlarni hisoblaganda har yili 25-30 miliard dollarni tashkil etishi aniqlangan.

Entomologiya bir necha bo’limga bo’linadi: umumiy entomologiya, qishloq xo’jalik entomologiyasi, o’rmon entomologiyasi, tibbiyot entomologiyasi,

veterinariya entomologiyasi va boshqalar

Entomologiyani ilmiy asosda o'rganish XVII asrdan boshlangan. 1667-yili Redi hashorotlar ustida o'tkazgan bir qator tajribalarini ularning ko'payishi ilmiy asoslashga bag'ishlagan. Shundan bir yil o'tgandan italiyalik olim I. Malpigi o'z fikrlarini e'lon qildi. Keyinchalik gollandiyalik olimlar Layonet va Svammerdam entomologiya bo'yicha izlanishlar natijasini chop etgan.

Hashorotlarning tabiatdagi ahamiyati haqida so'z borganda , bilamizki, tabiatda faqat zararli yoki faqat foydali organizmlar bo'lmaydi. Hayvonlarning foydali yoki zararli ekanligi to'g'risida so'z yuritilganda kishilar ularning hayot faoliyati to'g'risida o'z maanfatlari uchun sub'ektiv xulosa chiqarishadi. Juda xilma-xil va ko'p sonli bo'lishi tufayli hashorotlar tabiatda sodir bo'lib turidigan moddalar almashinuvida muhim ahamiyatga egadir. Ular gulli o'simliklarni changlatib hosil mahsuldorligini oshirishga yordam beradi. Mo'tadil mintaqalarda o'sadigan gulli o'simliklarning 30 foizga yaqini, tropik o'lkalarda yarmidan ko'prog'I hashorotlar yordamida changlanadi. Pardaqa notlilar – asosiy changlatuvchi hashorotlar hisoblanadi. Changlatishda ikki qanotlilar, kapalak, qisman qo'ng'izlar ham ishtirok etadi. Ayrim o'simliklar, masalan, grechixa, kungaboqar kabi o'simliklar faqat hashorotlar bilan changlanadi. Hashorotlar yordamida changlanadigan o'simliklar entomofill deyiladi. Evolyutsiya jarayonida hashorot bilan gulli o'simliklar o'rtasida o'ziga xos moslanishlar paydo bo'lgan. Xususan, hashorotlarning so'rvuchi xartumi guldan nektarni yeg'ish , hidni sezishi va ranglarni ajrata bilish qobiliyati esa nectar beruvchi gullarni oson topishga yordam beradi.

Hashorotlar tuproq hosil bo'lishi jarayonida ham o'z ahamiyatiga ega. O'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadigan hashorotlar tuproqni organik moddalar bilan boyitadi. Temitlar chumolilar va boshqa hashorotlar in qazib tuproqni yumshatadi va g'ovak qiladi; uning havo va suv o'tkazish xususiyatini yaxshilaydi; tuproqni yumshatadi, chirindi moddalar bilan boyitib yemirilishdan saqlaydi. O'simlik qoldiqlari, ayniqsa igna barglilar xazonining chirishida hashorotlarning katta ahamiyatga ega. Hashorotlar uchun qulay sharoit bo'lmasan

botqoq tuproqlarda o'simlik qoldiqlari parchalanmasdan torf hosil qiladi.

Hashorotla orasida hayvonlarning murdalari bilan oziqlanuvchi nekrofaglar (o'laksaxo'rlar) va go'ngxo' – kaprofaglar tabiiy sanitarlar vazifasini bajaradi. Go'ngxo'r hashorotlar hayvonlarning go'ngini parchalab uning chirishiga yordam beradi.

Hashorotlar tabiatda moddalar almashinuvuda ham katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik hashorotlar tirik o'simlik to'qimalari bilan oziqlanadi. Lekin ularning hammasini zararkunanda deyish mumkin emas. Aksincha, ular tabiatda moddalar aylanishining eng muhim zvenosi hisoblanadi.

Hashorotlar inson hayotida ham muhim ahamiyatga ega. Hashorotlardan olinadigan mahsulotlar formasevtikada va sanoatni turli xil dori darmonlar va bo'yoqlar olish maqsadida foydalanib kelinmoqda. Oziq-ovqat va ipak olish maqsadida kishilar asalari va tut ipak qurtini qadimdan xonakilashtirilgan. Hozirgi vaqtda aslarichilik va pillachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib kelmoqda.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. Muhammadiev A.M. Umurtqasizlar zoologiyasi. T., "O'qituvchi", 1976.
2. Lukin E.I Zoologiya. M., "Agropromizda", 1989. 384 s
3. Бей-биенко Г. Я. Общая ентомология. – М.: "Высшая школа", 1980.
4. Дьяков Ю.Т. и др. Общая и сельскохозяйственная фтопатология.- М.: "Колос", 1984.
5. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30.
6. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.